

**YOSHLAR MA'NAVIYATINI TRANSFORMATSIYALASHUVIDA
MEDIAMAKON O'RNI VA UNING IJOBIY VA SALBIY
TENDENSIYALARI**

Mazamqulov Eldor Muxammadqul o'g'li

Guliston davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Zamonaviy jamiyatda yoshlar ham sotsiologiya sohasida, ham boshqa sohalarda tadqiqotchilar uchun jamiyatning eng qiziqarli qatlami hisoblanadi. Buning sababi shundaki, yoshlar mamlakatda bo'layotgan turli jarayonlar: iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa jarayonlarda ishtirok etadi. Shuningdek, zamonaviy axborot jamiyati sharoitida mediamakon va medialarning rivojlanishi juda tez sur'atlar bilan sodir bo'lmoqda. Yosh avlod jamiyatning eng zaif qatlami sifatida ko'pincha mediamakonning ta'siri ostida bo'ladi, bu esa uning ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini o'zgartirishga, transformatsiyalashuviga olib keladi.

“Yoshlar turli xil ma'lumotlarga, ham salbiy, ham ijobiyarga ega bo'lishi mumkin - bu turli nashrlar, forumlar, yosh avlod uchun dolzarb bo'lgan mavzularga bag'ishlangan teledasturlardan olingan ma'lumotlar bo'lishi mumkin. Bunday sharoitda yoshlarning ijtimoiy-madaniy qadriyatlari qanday o'zgarishini tushunish kerak, chunki ular turli xil manbalarning xilma-xilligi tufayli ma'lumotlarning ishonchliligini farqlash qiyin kechadigan boshqa muhitga kiritilgan. Zamonaviy yoshlar - bu o'ziga xos ijtimoiy-madaniy guruh bo'lib, u o'ziga xos qadriyatlar, qiziqishlar, ideallar, qarashlar va xatti-harakatlar bilan ajralib turadi, ular bir tomondan ob'yektiv ijtimoiy-madaniy muhit va shaxsning individual ongini, va boshqa tomondan, uning ongi, faoliyati va xatti-harakati o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in vazifasini bajaradi. Ular insonning ehtiyojlari va manfaatlari, maqsad va intilishlari, dunyoqarashi va e'tiqodlarining butun majmuasini ifodalash elementi bo'lib, ularga muvofiq tarzda shaxs o'z xatti-harakatlarini rag'batlantiradi. Har qanday jamiyatda qadriyat yo'nalishlari ta'lim-tarbiya va maqsadli ta'sir ob'yekti bo'lib qoladi”.

Yoshlar aholining eng katta va jadal rivojlanayotgan yosh guruhi va ijtimoiy o'zgarishlarning muhim sub'yektidir, ya'ni jamiyatda sodir bo'layotgan turli o'zgarishlarning yaratuvchisi bo'lgan harakatlantiruvchi kuchdir. Yoshlar bir vaqtning o'zida ijtimoiy munosabatlarning sub'yekti va ob'yekti sifatida harakat qilishlari mumkin. Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar haqida gapirganda, bular shaxsiy ma'noga ega bo'lgan va faoliyat motivi bo'lgan ma'naviy va moddiy ko'rsaymalar ekanligini ta'kidlash mumkin. Qadriyatlar har qanday inson tarbiyasining maqsadi va asosidir. Qadriyat ko'rsatmalari insonning atrofdagi voqelik bilan munosabatlarining xususiyatlari va tabiatini belgilaydi va shu bilan ma'lum darajada uning xatti-harakatlarini, xulq-atvorini belgilaydi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, jamiyatning axborotlashuvi, raqamlashtirishning tobora kengayishi bilan yoshlarning qadriyat yo'nalishlarining transformatsiyasi kuchaymoqda. Jamiyat, xususan, zamonaviy jamiyat hayotining barcha jabhalariga kirib borayotgan medialar aholining barcha qatlamlariga, ko'p jihatdan yosh avlodga kuchli ta'sir o'tkazmoqda.

“Medialar zamonaviy ijtimoiy hayotning asosiy axborot manbai bo'lib, u insonning atrofdagi dunyo voqeliklari, undagi jarayonlar va hodisalar haqidagi tasavvurlarini shakllantiradi yoki o'zgartiradi, va shu bilan ijtimoiy tartibga solishning o'ziga xos vositasi bo'ladi. Medialar yordamida turli xil xabarlar shunday efirga uzatiladiki, ma'lum bir mavzu bo'yicha ma'lum bir jamoatchilik fikri, qarashlari, kayfiyatlari shakllanadi”.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida, ijtimoiy-madaniy qadriyatlar, xulq-atvor, qarashlar va fikrlar keskin qayta ko'rib chiqilayotgan bir paytda, OAVlari ushbu mexanizmni faol ravishda o'rganmoqda, unga o'z qoidalarini kiritmoqda. Yosh avlod hayotida medialar, mediamakonning mavjudligini yuqori deb baholash mumkin, chunki yoshlar dam olish vaqtlari yoki bo'sh vaqtlarining katta qismini aynan shunday o'yin-kulgiga bag'ishlashni afzal ko'radilar va shuning uchun medialar yoshlarning ijtimoiy-madaniy qadriyatlari va munosabatlarini shakllantirishda nazorat qiluvchi vosita sifatida ishlaydi. Mutlaqo aniq ayta olish mumkinki, bugungi kunda medialar inson shaxsiga ta'sir qilishda yetakchilik rolga

ega. Medialar jamiyat tomonidan ma'lum qadriyatlarni qabul qilish yoki rad etishga faol ta'sir ko'rsatadigan turli xil ijtimoiy-madaniy yutuqlarning uzatuvchisi bo'lib qolgan.

“Zamonaviy yoshlarning ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini transformatsiyalashuvi jarayoni shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

1. Jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy hayotning individual faktlarini kuzatish asosida ma'lum bir qadriyat sintezi. Bu bosqich voqelikning ommaviy axborot vositalarida aks etishi bilan tavsiflanadi. Yangi qadriyatlarni shakllantirishda faktlarga katta ahamiyat beriladi, ular yordamida inson ongida qadriyat mustahkamlanadi.

2. Allaqachon sintez qilingan ideal yoki salbiy hodisani tahlil qilish asosida jamiyatdagi mavjud qadriyatlar tizimiga ularni kiritish yoki ommalashtirish amalga oshiriladi. Ushbu bosqich faktlarni tahlil qilish asosida quriladi, bu esa, o'z navbatida, yangi qadriyatning ma'lum bir idealini asta-sekin yaratadi. Yoshlar turli ommaviy axborot manbalarini tahlil qilib, ma'lum bir qadriyatga ijobiy yoki salbiy munosabatda bo'ladilar va shunga qarab ular rad etiladi yoki asosiy qadriyatlar tizimiga kiritiladi.

3. Ushbu qadriyatni jamiyatda targ'ib qilish orqali inklyuziya. Ushbu bosqich qadriyat jamiyat va alohida shaxslarning mafkuraviy munosabatlariga ta'sir qila boshlaydi va medialar ushbu qadriyatni ma'lum bir jamiyat ichida yoki undan keyingi avlodlarga yetkaza boshlaydi”.

“Medialarda mamlakatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida turli ma'lumotlar e'lon qilinib, yosh avlod vakillari bu manbalarni tahlil qilib, qaysi fikr ko'pchilikni, qaysi biri ozchilikni tashkil etishini aniqlaydi. Shu tariqa, yoshlar ko'pchilikning pozitsiyasini tanlab, o'zlari sezmagan holda, o'zlarida noto'g'ri ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni shakllantiradilar yoki eskilarini transformatsiya qiladilar. Zamonaviy medialar munozarali, ziddiyatli xarakterga ega, ammo shu bilan birga o'zlarining afzalliklari va kamchiliklariga ham ega. Buning doirasida medialarning zamonaviy yosh shaxsga ijobiy va salbiy ta'sirini tahlil qilish va shu

asosda OAVning ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni transformatsiyalashuviga qanday ta'sir qilishini o'rganish mumkin".

Mediamakonning va medialarning yoshlarga ta'sirining ijobiy tomonlari quyidagilardan iborat:

1. Axborot olish tezligi, ya'ni medialarning operativlik kabi samaradorlik xususiyati borki, shuning uchun yoshlar o'z atrofida sodir bo'layotgan hamma narsadan xabardor bo'lib, shu orqali o'zlarining "axborot ochligi"ni, axborotga ehtiyojini qondiradilar.

2. Intellektual rivojlanish. Medialar aholining umumiy va tor doiradagi madaniyatini oshiradi.

3. O'zaro xabardorlik. Boshqacha aytganda, medialar hokimiyat va aholi o'rtasida o'zaro axborot almashish funksiyasiga ega.

Salbiy omillar orasida medianing ijobiy axborot manbai bo'lmay qolganini, ko'pchilik OAVning targ'ibot vazifalarini birinchi o'ringa qo'yishini alohida ta'kidlash mumkin. Bugungi kunda axborotning barcha uchun ochiq, hammabop bo'lgani psixologik xususiyatga ega bo'lgan ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi. Medialar yoshlarga katta ta'sir ko'rsatadigan ma'lum qadriyatlarni targ'ib qilib, ularni yoshlar ongiga o'rnatishni boshlaydilar. Bunday tamoyillar quyidagilarni o'z ichiga oladi: har qanday holatda ham muvaffaqiyatga intilish, "pulning hidi yo'q" tamoyili, "yashovchan shaxs" deb ataladigan model, "zaif va moslashtirilmagan odamlarni qurbon qilish, eng kuchli va eng ilg'orlar muvaffaqiyatga erishishi uchun omon qolishi" va boshqalar.

"Medialar kabi yoshlarga ta'sir ko'rsatuvchi vositadan foydalanib, ayrim voqealar haqidagi ma'lumotlar ishonchsiz tarzda taqdim etilmoqda. Reytinglarga intilishda va Internet muhitida trafikka intilib, manbalar hayratlanarli kontentni e'tiborsiz qoldirmaydi, va ommaga minglab salbiy ma'lumotlarni beradi. Agar kattalar nimani ko'rish, o'qish va tinglash kerakligini o'zi hal qilsa va aniqlay olsa, yoshlar, ayniqsa 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan o'smirlar, har doim ham ma'lumotni to'g'ri filtrlay olmaydi. Buni ushbu sohadagi turli tadqiqotlar ham tasdiqlaydiki, ularda bepul ta'lim va barcha qiziqarli narsalarga cheksiz kirishning

ijobiy funksiyalari bilan bir qatorda, biz o'zimizga qarshi qaratilgan qurolni ham oldik".

Medialarning yoshlarga salbiy ta'sirining eng yorqin misollari zo'ravonlik haqidagi haddan tashqari ko'p ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Deyarli har kuni turli sayt va kanallarda qotilliklar, qatllar va otishmalar haqidagi axborotlar yoritiladi, xatto bolalarga nisbatan zo'ravonlik muammolari muhokama qilinadi. Bu yoshlarda ruhiy tushkunlik (depressiya), qo'rquv yoki tashvish holatiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, medialar ko'pincha urush xavfini ommaga tarqatib, odamlar ongida doimiy tahdidni shakllantiradi. Yana bir keng tarqalgan mavzu - bag'rikenglik muammosi. Medialar boshqa millatlar yoki ozchiliklarga nisbatan salbiy munosabatni targ'ib qilishi mumkin.

Bugungi shiddatli globallashuv davrida yoshlar ongu shuurini internet orqali kirib kelayotgan zararli g'oya va ta'sirlardan samarali va ishonchli himoyalash tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o'qituvchilar, ma'naviyat targ'ibotchilari, ota-onalardan yanada hushyor va ogoh bo'lishni, yosh avlodning g'oyaviy-mafkuraviy immunitetini mustahkamlash borasidagi ishlar ko'lamini yanada kengaytirishni talab qiladi. Bizga ma'lumki, ko'plab sayt va tarmoqlar katta mablag'lar evaziga filtrlab qo'yilgan va bu holatni ko'plab davlatlarda kuzatish mumkin. Albatta, taqiqlar yoki filtr vositalari orqali odamlarni Internet olamidagi turli kuchlarning xatarli tahdidlaridan, keraksiz va salbiy axborotlardan saqlash qiyin va faqatgina vaqtinchalik holat bo'lishi mumkin.

Afsuski, "ayrim yoshlarimiz Yevropa va xorijiy ma'naviy-madaniy oqimlar ta'siriga ishtiyoqmand bo'lib, ularda milliy ma'naviyatimizning hayotbaxsh, yuksak axloqiylikka asoslangan tamoyillarga ixlosmandligi sust kechmokda. Inson qadri, mas'uliyati, axloqiga bepisandlik ba'zi yoshlarning kiyinishi, fe'l-atvori, yurish-turishida yaqqol ko'zga tashlanib qolmoqda. Bugun axborot chunonam ko'p va tez kirib kelayaptiki ularni «hazm» qilish uchun teran tafakkur va keng dunyokarash talab etiladi. Ayniqsa, internet olami farzandlarimiz e'tibori va qiziqishini tortib borayotgan bugungi davrda ayrim kompyuter o'yinlari haqida ham shunday misollarni ketirish mumkin. Mutaxassislar ma'lumotlariga ko'ra, internet

orqali tarkatiladigan kompyuter o'yinlarining 49 foizi sezilarli darajada zo'ravonlik va yovuzlik ko'rinishiga ega, 41 foiz jangari (turli otishmalar va portlashlarga asoslangan) o'yinlarda esa o'yin qahramoni o'z maqsadiga yetishish uchun shunday zo'ravonlik va yovuzlik sodir etadi. 17 foiz o'yinlarda ana shu zo'ravonlik va yovuzlikning o'zi bosh maqsad hisoblanadi. Turli jangovar, mentalitetimizga mos bo'lmagan, ba'zan qahramonlik vahshiylikka o'tib ketadigan bu kabi o'yinlar farzandlarimiz axloqiy-estetik tarbiyasiga to'g'ri ta'sir ko'rsata oladi deya olmaymiz. Bir qarashda ular oddiy o'yindek ko'ringani bilan zo'ravonlik g'oyalari, yovuzlik kayfiyatini uyg'otishi juda ko'p salbiy okibatlarga olib kelgani xususida hayotiy misollar ko'plab topiladi".

Yurtimizga olomoncha madaniyat asosan internet tarmog'i orqali kirib kelayapti. Bu hol odob-axloq, milliy va diniy qadriyatlarga hurmat pasayishi kabi ko'plab noxushliklarni keltirib chiqaryapti. Internetdagi g'oyaviy tuzoqlar go'yo madaniyatga o'xshashi va yoshlarga moydek yoqishi bilan ham xatarlidir. Ters olomoncha madaniyat ayrim yoshlar ongiga chang solib, ma'naviyat kushandasiga aylanmokda. Achinarlisi, mazkur «madaniyat» ta'siriga berilib qolganini yoki uning qurboniga aylanayotganini ko'pincha yoshlar o'zlari sezmaydi. Global axborot tizimidagi xabarlarni «fildrsiz» qabul qilish oqibatida yoshlar ongi zaharlanmoqda". "Bunday jirkanch «madaniyat» ta'siriga berilgan o'smir loqayd, hayotga yengil-yelpi qaraydigan, yurt ravnaqi va xalq tinchligiga befarq kimsa bo'lib ulg'ayadi.

Ijtimoiy tarmoqlarning oila va jamiyat barqarorligiga solayotgan eng katta tahdidlaridan yana biri – ulardagi muloqotlar sababli ko'plab tinch-totuv oilalar barbod bo'lib ketayotganidir. Farzandining istiqbolini, yorqin kelajagini istaydigan har bir ota-ona tarbiya masalasiga jiddiy e'tibor bermog'i zarur. O'sib kelayotgan yosh avlodni diniy-milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ular qalbida o'z xalqi, Vataniga mehr-sadoqat tuyg'usini kuchaytirish, ularni har xil buzg'unchi kuchlarning axborot xurujlaridan ogoh etish, munosib himoya qilishdan iboratdir.

Jamiyatning raqamli transformatsiyasining dolzarbligi va uning shaxs rivojlanishiga ta'siri bugungi kunda fanning turli sohalarida: pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, falsafa va boshqalarda muhokama qilinmoqda.

Zamonaviy ta'lim sharoitlari ta'lim muassasalaridan, ayniqsa oliy ta'limdan ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish borasida yangi yo'llarni topishni talab qilmoqda. 2020 yilgi COVID-2019 pandemiyasi shuni ko'rsatdiki, har bir oliy ta'lim muassasasida (institut va universitetlarda, ya'ni oliy o'quv yurtlarida) yuqori sifatli mashg'ulotlarni o'tkazish uchun tayyorlangan media platforma bo'lishi kerak. Biroq, ta'lim uchun innovatsiya bo'lgan narsa hozirgi paytda zamonaviy raqamli reallik uchun yangilik emas.

“Zamonaviy mediamakon yosh mutaxassislarni martabani tez o'sishiga va darhol muvaffaqiyatga erishishga yo'naltiradi, ijtimoiy tarmoqlarda ularning karyeralarida “tezkorlik” bilan ko'tarilishni va'da qiladigan ko'plab tematik guruhlar va kanallar mavjud. Ta'lim almashishdagi moda tendentsiyalari yosh mutaxassislarga har qanday qo'shimcha oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni onlayn formatda tanlash erkinligi bilan ilhomlantiradi. Qo'shimcha bilim olishning ko'rinib turgan “oddiyligi” va “qulayligi” bitiruvchilarning martaba o'sishiga bo'lgan ehtiyoj haqidagi tushunchalarini shu qadar soddalashtiradi va buzib ko'rsatadiki, ularning ko'pchiligi, “muvaffaqiyatli blogerlar” va'da qilganidek, nima uchun boshida “ko'tarilib” keta olmasligini tushunmaydilar. Talabani tez sur'atlarda o'sayotgan karyerasini kutishlari va ish beruvchining bitiruvchining “yutuqlari”ni inkor etishi haqiqati o'rtasida muammo vujudga keladi”.

Raqamlashtirish doirasida jamiyatga kirib kelgan barcha media-resurslar yangi mediamakonni shakllantirganini ko'rish mumkin, bu esa OTMlardan ta'limning media shakllariga o'tishni talab qildi, ijtimoiy-gumanitar jarayonlarni raqamlashtirishni kuchaytirdi va shaxsning yangi turi, ya'ni tarmoq shaxsining shakllanishi shartiga aylandi. “Tarmoq shaxsi”ning o'zi idrok etishni soddalashtirish va tanqidiy fikrlashdan qochish asosiy omil bo'lgan yangi media-muloqot madaniyatini shakllantira boshladi. Tarmoq shaxsining o'ziga xos xususiyati iste'mol qilingan axborotni tahlil qilishni idrok etishning o'rnatilgan fundamental tamoyillarini o'zgartiradigan klip-tafakkuri bo'ldi. Bu ish beruvchining kasbiy bilim sifati va bitiruvchi mutaxassisning malakasi, kompetentligi darajasidan norozi bo'lganiga sabab bo'lgan muammoga aylandi.

So'rovda qatnashgan ish beruvchilarning fikriga ko'ra, talabalar asosiy qadriyatlarni soddalashtirish va yashash makonini hissiy va emotsional idrok etishga o'tishni namoyish etadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ashirov V.I. Mediasavodxonlik va axborot madaniyati. Navoiy-2022.
2. [http:// uz. Infocom. uz](http://uz.infocom.uz) / 2016 / 03 / 30. Axborot olish madaniyatini shakllantirishda ijtimoiy me'yorlarning o'rni.
3. Sultanov Sirojbek Habibullayevich. Yoshlar ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.03.01.2023.
4. R.X.Alimov, O'.T.Xayitmatov, A.F.Xakimov, G.T.Yulchiyeva, O.X. Azamatov, U.A.Otajonov. Axborot tizimlari. Toshkent-2013.
1. Nuriddin Akramkulovich Saidkulov (2020). THE IMPACT OF THE REFORMS ON THE POLITICAL CULTURE OF YOUTH. Academic research in educational sciences, (1), 152-156. doi: 10.24411/2181-1385-2020-00022
2. Akramovich, Saidkulov N. "The Effect of Dynamic Changes in Society on the Political Culture of Youth." European Journal of Humanities and Educational Advancements, vol. 1, no. 2, 2020, pp. 7-9.
3. Akramkulovich, S. N. (2020). Important Tasks for the Development of Youth Political Culture: Problems and Solutions. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 7(5), 494-497.
4. Akramkulovich, S. N. (2020). International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding.
5. Саидкулов, Н. А. (2020). ЁШЛАР СИЁСИЙ МАДАНИЯТИНИ КРЕАТИВ ЁНДАШУВ АСОСИДА РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ КОНСЕНСУС, 1(1).
6. Akramkulovich, S. N. (2020). METADOLOGICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF YOUTH POLITICAL CULTURE ON THE BASIS OF INNOVATIVE-CREATIVE APPROACH. Восточно-европейский научный журнал, (5-5 (57)), 39-42.

7. Saidkulov, N. A. (2020). The Impact of the Reforms on the Political Culture of Youth. Academic research in educational sciences, (1), 152-15
8. Akramovich, S. N. (2020). The Effect of Dynamic Changes in Society on the Political Culture of Youth. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 1(2), 7-9.
9. Akramkulovich, S. N. (2020). Important Tasks for the Development of Youth Political Culture: Problems and Solutions. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 7(5), 494-497.
10. Саидкулов, Н. А. (2020). ЁШЛАР СИЁСИЙ МАДАНИЯТИНИ КРЕАТИВ ЁНДАШУВ АСОСИДА РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ КОНСЕНСУС, 1(1).
11. Akramkulovich, S. N. (2023). HISTORICAL ROOTS OF THE FORMATION OF EASTERN POLITICAL THOUGHT. World Bulletin of Social Sciences, 19, 173-176.
12. Saidkulov, N. ISSUES OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF YOUTH POLITICAL CULTURE IN THE NEW RECONCILIATION PERIOD OF UZBEKISTAN.
13. Akramkulovich, S. N. (2023). JAMIYAT SIYOSIY TAFAKKURI SHAKLLANISHINING TARIXIY ILDIZLARI. SIYOSATSHUNOSLIK, HUQUQ VA XALQARO MUNOSABATLAR JURNALI, 2(3),
14. Saidkulov, Nuriddin. "ISSUES OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF YOUTH POLITICAL CULTURE IN THE NEW RECONCILIATION PERIOD OF UZBEKISTAN."